

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil).– 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

IQTISODIYOT FANLARI

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN EKOTIZIM MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

NamDTU mustaqil tadqiqotchisi

Email: Mirzatov1991@gmail.com

Tel: +998972548546

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. ushbu maqolada jahon amaliyotida tadbirkorlik ekotizimi davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, moliya institutlari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, investorlar, mentorlik tarmoqlari, raqamli platformalar hamda xususiy sektorning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks model sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik ekotizimi, investorlar, biznes-inkubatorlar, mentorlik tarmoqlari, raqamli platformalar.

IMPROVING THE INTEGRATED ECOSYSTEM MODEL FOR YOUTH ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT

Mirzatov Bahtiyor

Namangan State Technical University

Independent Researcher

Annotation. This article examines the entrepreneurial ecosystem in international practice as a comprehensive model based on cooperation among government agencies, higher education institutions, financial institutions, business incubators, accelerators, investors, mentoring networks, digital platforms, and the private sector.

Keywords: entrepreneurship, entrepreneurial ecosystem, investors, business incubators, mentoring networks, digital platforms.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i15/n08>

Kirish.


So'nggi yillarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Biroq ushbu yo'nalishda erishilgan ijobiy natijalarga qaramay, yosh tadbirkorlarning biznesni tashkil etish va uni barqaror rivojlantirish jarayonida moliyaviy resurslardan foydalanish, malakali maslahat xizmatlarini olish, innovatsion infratuzilmaga ulanish, bozorlar bilan integratsiyalashish hamda investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur holat yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mavjud mexanizmlarni alohida-alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan yagona tizim – tadbirkorlik ekotizimi asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida tadbirkorlik ekotizimi davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, moliya institutlari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, investorlar, mentorlik tarmoqlari, raqamli platformalar hamda xususiy sektorning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks model sifatida qaraladi. Bunday yondashuv yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishini

jadallashtirish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va biznes subyektlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Olimlardan Westhuizen yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalasini tadbirkorlik ekotizimi konsepsiyasi asosida tadqiq etib, yosh tadbirkorning muvaffaqiyati faqat shaxsiy tashabbus yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan emas, balki uni o'rab turgan tashqi muhitning uzviy faoliyatiga ham bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan "SHAPE Youth Entrepreneur Ecosystem" modeli yosh tadbirkorni ekotizimning markaziy subyekti sifatida ko'rib, uning atrofida oliy ta'lim muassasalari, davlat organlari, mentorlar, biznes hamjamiyati, investorlar, mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor institutlarning o'zaro hamkorligi yo'lga qo'yilishi zarurligini asoslagan[1].

Shu nuqtai nazardan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning mavjud institutsional imkoniyatlari hamda taklif etilgan yangi integratsiya elementlarini yagona iqtisodiy tizim sifatida o'zaro bog'lovchi takomillashtirilgan integratsiyalashgan ekotizim modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning takomillashtirilgan va integratsiyalashgan ekotizim modeli[7]

Takomillashtirilgan integratsiyalashgan ekotizim modeli yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, moliyaviy institutlar, ta'lim tizimi, biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi hamda bozor institutlari faoliyatini yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm asosida o'zaro bog'lashni nazarda tutadi. Mazkur modelning asosiy farqli jihati alohida faoliyat yuritayotgan institutlarni bir tizim doirasida integratsiyalash orqali resurslardan kompleks foydalanish va iqtisodiy aloqalarning uzluksizligini ta'minlashdan iborat.

Hulosa

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning me'yoriy-huquqiy va institutsional asoslari izchil shakllanganini ko'rsatdi. Davlat organlari, tijorat banklari, oliy ta'lim muassasalari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, sanoat zonlari, texnoparklar va boshqa infratuzilma subyektlari tomonidan yoshlarning biznes

tashabbuslarini moliyaviy, tashkiliy hamda maslahat jihatidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaygan. Biroq mazkur institutlarning ko'p hollarda o'z funksional vakolatlari doirasida alohida faoliyat yuritishi xizmatlarning uzviyligi, resurslarning uyg'un taqsimlanishi va yosh tadbirkorning biznes g'oyasidan barqaror faoliyat yurituvchi korxonagacha bo'lgan rivojlanish yo'lini yagona tizim asosida boshqarish imkoniyatini cheklamoqda.

Amaldagi ekotizim tahlili uning asosiy muammosi qo'llab-quvvatlovchi elementlarning yetishmasligidan ko'ra, ular o'rtasidagi funksional va axborot integratsiyasining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganida ekanini asoslash imkonini berdi. Institutlararo ma'lumot almashinuvidagi uzilishlar, moliyalashtirish, mentorlik, infratuzilma va bozorga chiqish xizmatlarining bir-biridan ajralgan holda ko'rsatilishi, ayrim vazifalarning takrorlanishi hamda natijadorlik ko'rsatkichlarining yagona mezonlar asosida baholanmasligi mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning keyingi bosqichi yangi institutlarni ko'paytirishdan ko'ra, mavjud imkoniyatlarni yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm asosida o'zaro bog'lashga yo'naltirilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Van der Westhuizen, T. (2023). Youth Entrepreneur Ecosystem. In Practical Tools for Youth Entrepreneurs: An Applied Approach for South Africa and Beyond (pp. 57–114). Cham: Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-3-031-44362-6_3.
2. Isenberg, D. J. (2010). How to Start an Entrepreneurial Revolution. Harvard Business Review, 88(6), 40–50.
3. Stam, E. (2015). Entrepreneurial Ecosystems and Regional Policy: A Sympathetic Critique. European Planning Studies, 23(9), 1759–1769. <https://doi.org/10.1080/09654313.2015.1061484>.
4. Spigel, B. (2017). The Relational Organization of Entrepreneurial Ecosystems. Entrepreneurship Theory and Practice, 41(1), 49–72. <https://doi.org/10.1111/etap.12167>.
5. Ács, Z. J., Autio, E., & Szerb, L. (2014). National Systems of Entrepreneurship: Measurement Issues and Policy Implications. Research Policy, 43(3), 476–494. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2013.08.016>.
6. Stam, E. (2015). Entrepreneurial Ecosystems and Regional Policy: A Sympathetic Critique. European Planning Studies, 23(9), 1759–1769.
7. Muallif ishlanmasi.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil). – 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.